

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

## QORAQALPOG'ISTONNING IQLIM SHAROITLARINING O'ZGARISHI

**M.Ya.Radjapov**

katta o'qituvchi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**T.R.Matmuratov**

geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'naliishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**A.S.Jiyemuratov**

geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'naliishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

**Резюме:** Maqolada Qoraqalpog`iston hududidagi XX asrning oxirgi choragi XXI asrning boshlarida iqlim o'zgarishlari haqida fikr yuritilgan.

**Резюме:** В статье рассматриваются климатические изменения на территории Каракалпакстана в последней четверти XX-начале XXI века.

**Summary:** The article examines the climatic changes in the territory of Karakalpakstan in the last quarter of the XX-beginning of the XXI century.

Qoraqalpog'istonning tabiiy sharoitlari va ijtimoiy-iqtisodiy resurslari jihatidan keng imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Keyingi yillarda ayniqsa XX asrning oxirgi choragi XXI asrning boshlarida ko'pgina tabiiy komponentlar, shu jumladan iqlim sharoitlari, agroiqlim va suv resurslari antropogen faktorlar ta'sirida kuchli o'zgarishga uchradi. Bunday o'zgarishlar tabiatga, tabiiy muhitga, o'simliklar va hayvonotlar dunyosiga kuchli sezilarli ta'sir o'tkazmoqda.

Bunday muammolarning oldini olish, ularni echish, yoki yumshatish maqsadida, O'zbekiston 1993 yili BMT ning iqlim sharoitlarining o'zgarish muammolarini echish masalalari bo'yicha Konvensiyaga a'zo bo'ldi, 1994 yili BMT ning cho'listonlikka aylanishga qarshi kurashish Konvensiyasiga a'zo bo'ldi. Mintaqada bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash va ularga to'g'ri baho berishda o'z vaqtida aniq amalga oshiriladigan tadbirlar ahamiyatli o'rinni egallaydi.

O'zbekistonning, shuningdek Qoraqalpog'istonning gidrometeorologik monitoringi va tabiiy muhitning ifloslanish monitoringi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bosh boshqarmasida belgilab qo'yilgan.

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilmiy-teoriyalıq konferenciya

Bu vazifalarni asosan gidrometeorologik va agrometeorologik punktlar, shuning bilan birga tabiiy muhitning ifloslanishini nazorat qiluvchi punktlar bajaradi. Sistematik kuzatish ishlari Qoraqalpog'iston hududida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan olib borila boshlandi. Meteorologik stantsiyalar keyingi 100 yildan ortiqroq kuzatish ma'lumotlariga ega.

Keng turdag'i kuzatishlarni tahlil qilsak iqlim sharoitlarining, havo temperaturasining va atmosfera yog'in-sochinining davriy va keng ko'lAMDAGI o'zgarishlarga uchraganligini ko'ramiz. Iqlim sharoitlarining o'zgarishiga asosan antropogen faktorlar-urbanizatsiya jarayoni, foydalaniladigan er maydonlarining kengayishi, yirik suv ob'ektlarining, suv omborlarining paydo bo'lishi, Orol dengizi suv sathining pasayib ketishi ta'sir qildi.

Qoraqalpog'iston hududining yuqori agroiqlim potentsialida asosiy komponent suv resurslari hisoblanadi. Bo'layotgan global iqlim o'zgarishlar muvozanatning, ya'ni iqlim sharoitlari bilan suv resurslarining o'zgarishga uchraganligini ko'ramiz.

Orol muammosi suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida paydo bo'lgan ekologik inqiroz hisoblanadi. Orol dengizi va Orolbo'y'i iqlimining keskin o'zgarishga uchrayotganligi, uning butun O'rta Osiyoga kuchli ta'sir etayotganligi kelajakdagi jarayonlarning prognozik tahlillariga terangroq to'xtalishni taqozo etadi. Shuning bilan birga salbiy omillarni kamaytirish, ularning oldini olish, tabiiy muhit monitoringi, ma'lumotlar yig'ilib, respublikadagi gidrometeorologik nazorat ishlarini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Bu masalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi gidrometeorologik bosh boshqarmasi, V.A.Bugaev nomidagi O'rta Osiyo gidrometeorologik ilmiytadqiqod instituti ko'p ishlarni amalga oshirmoqda.

Qoraqalpog'istonning shimoliy, janubiy bo'limidagi kordinatalari  $40^{\circ} 55'$  va  $45^{\circ} 35'$  shimoliy kenglikni shuning bilan birga g'arb va sharqdagi chekka nuqtalari  $56^{\circ} 02'$  va  $62^{\circ} 24'$  sharqiy uzunliklarni egallagan. Hududining ko'pchilik bo'limi tekisliklar va cho'listonliklardan iborat. Iqlim sharoitlarida shunga bog'liq O'rta Osiyoning qurg'oqchil zonalari iqlimlari bilan deyarli bir xil.

Qoraqalpog'istonning tabiiy chegaralanishida ko'pchilik bo'limida, ayniqsa sharqida chegara rolini bajaruvchi tabiiy belgilar kam. Janubiy-sharqida va janubida uzunlik yo'nalishida joylashgan Qizilqum va Qoraqum cho'listonliklari, g'arbida Ustyurt platosi, shimolida Orol dengizi tabiiy chegara rolini bajaradi.

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Yoz oylarida hudud kontinental tropik iqlim sharoitlariga ega bo'ladi, ya'ni qurg'oqchilik ustunlik qiladi. Qish oylarida havo sovuq va quruq bo'lib keladi. O'zbekistonning boshqa hududlariga taqqoslaganda Qoraqalpog'iston hududi sovuq bo'lib keladi.

Qoraqalpog'iston respublikasi hududida yog'in-sochin asosan qish, bahor oylarida ko'proq yog'adi. Hududida suv tanqisligi uchraydi, shuning uchun faqat sug'orib ekiladigan dehqonchilik sohalari yaxshi rivojlangan.

Qoraqalpog'iston iqlim sharoitlarining antropogen o'zgarishining xarakteri juda katta hajmdagi qo'riq erlarning ochilishi bilan bog'liq. Qancha ko'p yer maydonining o'zlashtirilishi bilan suvning bug'lanishi shuncha ortib boradi. Oldingi ko'pgina qo'riq maydonlarning o'rnida vohalar paydo bo'ladi, bu hududlarning yozgi temperaturasi biroz pasayadi, havoning namligi ortib ketadi. Bunday hududlar Amudaryo va Sirdaryoning yuqori, o'rta oqimlarida ko'p ochildi. Bu hududlarning suvni haddan ortiq ko'p foydalanishi natijasida, Quyi Amudaryoda suv etishmovchilik muammolarini keltirib chiqardi. Orol dengiziga keluvchi suv miqdorining haddan tashqari kamayib ketishiga bog'liq dengiz sathining keskin pasayib ketishiga, uning egallagan maydonining qisqarib ketishiga olib keldi.

Bunday sharoit dengizdan keluvchi iliq oqimning kamayib ketishiga, dengiz yoqasidagi hududlarining havo temperaturasining pasayib ketishiga olib keldi. Vaqt o'tishi bilan qishgi temperaturaning bunday o'zgarib borishi dengizdan uzoqlashgan sari sezilarli darajada bo'ladi.

Yoz va bahor oylarida dengizdan keluvchi salqin havo ta'sirining kamayishi, dengizdan qurigan maydonning juda isib ketishiga olib keladi, dengizdan uzoqlashagan sari bu ta'sir kamayib boradi.

Temperaturalarning orasidagi farq, ya'ni antropogen faktor ta'sirida bu ko'rsatkich  $1,0\text{--}1,5^{\circ}\text{S}$  dan ortmaydi. So'nggi yillari dengiz suvining keskin kamayib ketishi natijasida undagi orollarning ko'pchiligi quruqlikka qo'shilib ketdi. Temperatura rejimining o'zgarishi bu joylarda yuqori bo'ladi. Bundagi temperatura o'zgarishidagi antropogen ta'sirning hissasi 25-50 % gacha etadi.

Bahorgi va kuzgi antropogen havo temperaturasining o'zgarishi har xil bo'ladi, issiqlik resurslari vegetatsion davrda ko'p vaqtgacha bir xil bo'ladi. 1981-1990 yillarda dengiz suvi (Mo'ynoq va Uyalidan) 25-26 kilometrgacha chekinib ketdi, havoning antropogen isib ketish effekti o'sib ketdi.  $0^{\circ}\text{S}$  atrofida bo'ladigan temperatura faqatgina dengiz sohillarida o'zgarmay qoldi. Boshqa hududlarda esa bu ko'rsatkich ko'p yillik o'rtacha ko'rsatkichga taqqoslaganda o'zgarishga uchradi. Yozgi havo temperaturasining sutkalik amplitudasi qirg'oq

# "GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

stantsiyalarida quruqlıqqa borgan sayin ko'tarilib boradi. Sutkalik amplituda Uyalida  $5-6^{\circ}$  S, Mo'ynoqda  $7-8^{\circ}$  S dan  $11,5-12,6^{\circ}$  S gacha ko'tarilgan. Qishdagı sutkalik amplituda g'arbiy qirg'oq zonalarida deyarli o'zgarmay qolgan, ya'ni quruqlikka qaraganda pastroq bo'ladi.

Temperaturaning ko'tarilishiga bog'liq bioiqlim sharoitlarida o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ko'pchilik joylarda ob-havoda o'zgarishlar yuzaga keldi. Masalan Mo'ynoqda III klass ob-havo yo'q bo'lib ketdi (juda issiq va juda nam), quyoshli ob-havo qaytalanishi yuqoriladi, juda issiq va juda quruq.

Qoraqalpog'iston hududida namlikning nisbiy ulushi sezilarli o'zgarishga uchradi, ayniqsa Amudaryo deltasining janubiy va sharqi bo'limlarida. Bu jarayonlardagi antropogen omillarning ta'siri kuchayganligini ko'ramiz. Iqlimning antropogen o'zgarish jarayonlari Orol dengizi bo'ylarida sezilarli darajada bo'ladi, ya'ni oldingi (1960 yillargacha) qirg'oq chiziqlaridan 100 kilometr ichkarida. Quyoshli ochiq kunlar, atmosfera yog'in-sochin miqdori dengiz degratatsiyasi bilan unchalik bog'liq emas.

Iqlim sharoitlarining o'zgarishi butun O'rta Osiyo hududida, O'zbekiston hududida aniqlangan, shuning ichida Qoraqalpog'iston hududida bu jarayon sezilarli darajada.

Keyingi 50 yillik kuzatish natijalariga e'tibor bersak, 1985 yillarda tsirkulyatsiyaning kenglik tipi harakatining tezlashish jarayonini ko'ramiz. 90 yillarning o'rtalariga kelib uning takrorlanishi biz kuzatgan davrda o'zining maksimum darajasiga etdi. Bu davrda tsirkulyatsiyaning meridional tipining takrorlanish jarayoni keskin pasayganini ko'ramiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. В. Е. Чуб. Избилие климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал республики Узбекистан. Ташкент. 2000.
2. Муминов Ф. А., Абдуллаев Х. М. Агроклиматические ресурсы Республики Узбекистана. Ташкент. САНИГМИ, 1997.
3. Матмуратов Ж. Агроклиматические условия северо-западного Узбекистана. Нукус. «Каракалпакстан», 1989.